**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor ____________ Sh.Sirojiddinov
2025-yil ____________

**O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

# LINGVODIDAKTIKA ASOSLARI fani

# O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 110000 – Ta’lim

**Ta’lim yo‘nalishi:** 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti

Toshkent–2025

| Fan/modul kodi LA1305 | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026 | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Semestr** | **Har bir semestrdagi modulning nomi** | **ECTS - Kreditlar** | **Haftalik dars soatlari** | **O'quv mashg'ulotlari (soat)** | | | | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | | | | **Jami:** | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 3 | **Lingvodidaktika asoslari** | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| | **Jami:** | **5** | **4** | **60** | **30** | **0** | **30** | **0** | **90** | **150** |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrant-talabalarda til o'qitish nazariyasi, tilshunoslik va didaktika integratsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish salohiyatini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Fan zamonaviy lingvodidaktika g'oyalari, lingvodidaktika tarixi, lingvodidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, lingvodidaktikaning psixologik va psixolingvistik, didaktik asoslari, prinsiplari, til o'qitishda milliy va xorijiy metodikaning ilg'or tendensiyalari, ona tili va ikkinchi tilni o'qitishdagi o'ziga xos farqli jihatlar; til o'qitishdagi o'quv jarayoni va o'quv materiallarini tahlil qilish mezonlariga oid qonuniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Fanning vazifasi – "Til o'rganish" va "tilni o'zlashtirish" tushunchalarini, tilshunoslik va didaktika integratsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qila olish; til o'qitishda milliy va xorijiy metodikaning zamonaviy yondashuvlarini tatbiq eta olishga oid bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga erishish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Lingvodidaktika asoslari fanining mohiyati**

Lingvodidaktika – tilni o'qitishning umumiy nazariyasi. Lingvodidaktika fanining maqsad va vazifalari. Lingvodidaktika fanining shakllanishi va rivojlanishi. Lingvodidaktikaning zamonaviy yo'nalishlari.

**2-mavzu: Til o'rganish va til o'zlashtirish**

Til o'zlashtirish, til o'rganish, bixevioristik nazariya, nativistik nazariya, kognitiv nazariya Tabiiy tartib gepotezasi. Til o'zlashtirish va o'rganish jarayonlari o'rtasidagi farq. Goduer Braun tadqiqoti.



**3-mavzu: Tilni ona tili va ikkinchi til sifatida o'qitish**

Ona tili, ikkinchi til va xorijiy til tushunchalari. Ona tili va ikkinchi tilni o'qitishning umumiy va farqlovchi jihatlari. Ta'lim sharoitida ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari. Ikkinchi til ta'limining ilmiy jihatdan o'rganilishi. Ikkinchi tilni o'zlashtirishga oid gipotezalar.

**4-mavzu: Kompyuter lingvodidaktikasi**

Kompyuter lingvodidaktikasi – til o'qitishning zamonaviy usullari bo'limi. Kompyuter lingvodidaktikasining yo'nalishlari. Kompyuter dasturlari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish masalasi. Til o'rgatishga asoslangan kompyuter dasturlari va elektron topshiriqlar. Til ta'limida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.

**5-mavzu: Til ta'limi va xorij tajribasi**

1. Tillarni o'qitish murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida. Til o'qitishda yaqin va uzoq xorij tajribasi. Metod, metodika, metodologiya tushunchalarining mohiyati.

**6-mavzu: Til ta'limida zamonaviy yondashuvlar**

Ona tilini o'qitishdagi yondashuvlar: grammatik, kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ, kognitiv-pragmatik, antroposentrik yondashuvlar. Til o'qitishdagi yondashuvlarning ona tilini o'qitishga xoslanishi.

**7-mavzu: Til ta'limida tinglash va so'zlash malakalarini shakllantirish**

Predmetga oid kompetensiyalar. Anglash ko'nikmasi. Tinglab tushunish. Og'zaki nutqni shakllantirish. Tinglab tushunish va so'zlash malakasini shakllantirish usullari.

**8-mavzu: Ona tili ta'limida o'qib tushunish va yozish malakalarini shakllantirish**

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon sifatida. O'qish savodxonligi. PISA xalqaro baholash dasturi mohiyati. Yozma nutqni shakllantirish usullari.

**9-mavzu: Til ta'limida lingvistik malakani shakllantirish**

Lingvistik kompetensiya tushunchasi. "Grammatika-grammatika uchun" emas, balki "grammatika fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun" prinsipi. Grammatik ta'lim berish usullari. Lingvistik bilimni kontekstda berish.

**10-mavzu: Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchi va o'qituvchi faoliyati**

Ona tili ta'limi jarayoni. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati. Hamkorlikda o'qitish. Loyihaga asoslangan ta'lim.

**11-mavzu: Til ta'limi jarayonida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni**

XXI asr ko'nikmalari: o'rganish ko'nikmalari (4"K" modeli), hayotiy ko'nikmalar, ilmiy savodxonlik ko'nikmalari (media va raqamli resurslar orqali yangi bilimlarni egallash va qo'llashda yordam beradigan ko'nikmalar).

**12-mavzu: Til o'qitishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar**

Til ta'limidagi tadqiqotlar mundarijasi, ularning dolzarbligi va ahamiyatlilik darajasi. Ona tili o'qitishda hamkorlikda o'qitish tizimining mazmuni va uni takomillashtirish. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlari ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslari. Integral ta'lim masalasi.

**13-mavzu: Ona tili ta'limida didaktik vositalardan foydalanish mazmuni**

Didaktik vositalar, ularning turlari. Didaktik vositalarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ona tili ta'limi jarayonida didaktik vositalardan foydalanish. Didaktik vositalarga qo'yiladigan talablar.

**14-mavzu: Til ta'limida o'quv materiali bilan ishlash mazmuni**

Ona tili ta'limida o'quv materiallarining berilishi bilan bog'liq muammo va yechimlar. O'quv materiallarida mashq va topshiriqlar tizimi. O'quv materialini idrok etish. Ona tili o'qitishda ko'rgazmalilik.

**15-mavzu: Oliy ta'limda til o'qitish metodikasi masalalari**

Oliy ta'lim sifatini belgilovchi omillar. Dunyo tajribasida til va adabiyot yo'nalishi bakalavrlari uchun tanlangan fanlar. Dunyo tajribasida til va adabiyot yo'nalishi magistrlari uchun tanlangan fanlar. Xorij universitetlarida til o'qitishga yo'naltirilgan fanlar.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tasviya etiladi:*

1. Lingvodidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Til o'rganishning psixologik va psixolingvistik asoslari
3. Ona tili va ikkinchi tilni o'qitishdagi umumiy va xususiy jihatlar
4. Kompyuter lingvodidaktikasida sun'iy intellekt imkoniyatlari
5. Ta'limi rivojlangan davlatlarda til o'qitish tajribasi
6. Ta'limi rivojlangan davlatlarda til o'qitish tajribasini o'rganish
7. Tinglash va so'zlash malakasini shakllantirish uchun material tanlash va topshiriq tuzish
8. O'qib tushunish malakasini shakllantirish uchun material tanlash va topshiriq tuzish
9. Yozma nutq malakasini shakllantirish uchun material tanlash va topshiriq tuzish
10. Ona tili darslarida lingvistik malakani shakllantirish usullari
11. Ona tilidan hamkorlik va loyihaga asoslangan ta'limni olib borish usullari
12. Ona tilini o'qitishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan birini sharhlash



13. Ona tilini o'qitishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan birini sharhlash
14. Ona tili ta'limi jarayoni uchun didaktik materiallar tayyorlash
15. Oliy ta'limda til o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Lingvodidaktika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Lingvodidaktikaning psixologik va psixolingvistik asoslari
3. Til ta'limida zamonaviy yondashuvlar
4. Til o'qitish mazmuni va materiallari
5. Oliy ta'limda til o'qitish metodikasi
6. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodikasi va usullari
7. Tilni o'zlashtirishda lingvistika va didaktika integratsiyasi
8. Tilni o'rganish va tilni o'zlashtirish
9. O'zbekistonda ona tili o'qitish tarixi va taraqqiyoti
10. Ona tilini o'qitishga oid olib borilgan tadqiqotlar sharhi
11. Kompyuter lingvodidaktikasi
12. Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari
13. Til ko'nikmalarini shakllantirish muammolari
14. Til ta'limini tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilish
15. Til ta'limida mustaqil ishlarni tashkil qilish
16. Oliy ta'limda til o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari
17. Ona tilini o'qitishda antroposentrik yondashuv
18. Ona tilini o'qitishda evristik yondashuvni qo'llash
19. Til darslarini loyihalash asosida tashkil etish
20. Ona tilini o'qitishning dolzarb muammolari.

3. **V. Fan o'qitilishing natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Lingvodidaktika faning mohiyati, maqsad va vazifalari, predmeti, metodlari; tillarni o'qitish jarayoni va mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar mazmuni: tushunchalar, prinsiplar, til ta'limi mazmuni, o'qitishning tashkiliy shakllari, tadqiqot mexanizmlari va o'quv jarayonini loyihalash; uning boshqa tilshunoslik fanlari nazariyasi va uning asosiy tushunchalarini umumlashtirish, to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;
- Lingvodidaktikaning fan sifatidagi o'rni, boshqa fanlar bilan aloqasi, ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar, ona tilini o'qitish metodlari, metodologiya va lingvodidaktikaga oid tushunchalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- til o'qitishda milliy va xorijiy metodika yutuqlaridan foydalana olish; ta'lim jarayoni va uni tanqidiy tahlil qilish; umumiy o'rta va oliy bosqichlari, o'quv kurslarida til o'qitishning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ta'limni loyihalashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

**4.** **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5.** **VII. Kreditlarni olish uchun talablar**

Talabalarning bilimini baholash va kreditlarni to'plash jarayoni O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida ***yozma*** shaklda 2 marta o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha ***og'zaki*** (loyiha taqdimoti) shaklida o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba Lingvodidaktika fanining mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa; fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa; fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa; fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa; berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa; til o'qitishda milliy va xorijiy metodika yutuqlaridan foydalana olsa; mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa; fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa; til ta'limi mazmuni, o'qitishning tashkiliy shakllari, tadqiqot mexanizmlari va o'quv jarayonini loyihalay olsa – **5 (a'lo) baho;**

talaba Lingvodidaktika fanining mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiylik chalkashliklarga yo'l qo'ymasa; Lingvodidaktika fanining amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa; berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa; berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa; mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; Lingvodidaktika faniga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa; til ta'limi mazmuni, o'qitishning tashkiliy shakllari,



tadqiqot mexanizmlari va o'quv jarayonini loyihalashda juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'ysa – **4 (yaxshi) baho;**

talaba Lingvodidaktika fani haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa; Lingvodidaktika fanidagi mavzularni tor doirada yoritib, fan sifatidagi o'rni, boshqa fanlar bilan aloqasi, ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillarni qisman bilsa; mustaqil topshiriqlarni qisman bajargan bo'lsa; til ta'limi mazmuni to'liq izohlay olmasa; fanga oid puxta bilim shakllanmagan bo'lsa – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba Lingvodidaktika fani bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa; fan bo'yicha topshiriqlarni boshqalardan ko'chirib olgani sezilib tursa; fan bo'yicha nazorat ishlarida jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; Lingvodidaktika fani mohiyatini bilmasa – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

**6.** **VIII. Asosiy adabiyotlar**


1. Ворожцова И.Б. Основы лингводидактики. Учеб.пособие. – Ижевск, Удмуртский государственный университет, 2007. – 113 с.
2. Roziqov O.R., Mahmudov M.H. va b. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 382 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent. 2020-yil, 23-sentyabr.
2. Гальскова Н.Г. Теория обучения иностранным языкам. Учеб.пособие. – М.: Академия, 2006. – 336 с.
3. Шаклеин В.М. Русская лингводидактика: история и современность: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – 209 с.
4. Крупченко А.К., Кузнецов А.Н. Основы профессиональной лингводидактики: Монография. – М.: АПКиППРО, 2015. – 232 с. – (Серия «Профессиональная лингводидактика»).
5. Richards, J. Longman. Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics / J. Richards, R. Schmidt. – London: Pearson Education Limited, 2002. – P. 644.
6. Panferova I. Dusimbetova N. Integration of linguistic and didactic issues in the language acquisition process. Молодой учёный, № 43 (281). – С. 269–270.
7. Ona tilidan Milliy o'quv dasturi loyihasi. – Toshkent, 2020-yil.
8. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent, 2019.
9. Мавлонова К.М. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Mashhur-press, 2016. – 252 б.
10. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023. 256 b.

| | |
|---|---|
| | 11. Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003.<br>12. Елена Станиславовна Романичева, Ирина Витальевна Сосновская. Введение в методику обучения литературе. – Москва: Флинта, 2015.<br>13. Коллектив авторов. Технологии и методики обучения литературе. – Москва: Флинта, 2012.<br>14. Галина Васильевна Пранцова, Елена Станиславовна Романичева. Методика обучения литературе. Практикум. – Москва: Флинта, 2015.<br>15. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015.<br>16. Methodology in language teaching an anthology of current practice. Jack C Richards and Willy A. Renandya (Eds). Cambridge University Press, 2003.<br>17. Франсуа Мари Жерар и Ксавье Роже. Разработка и анализ школьных учебников. – Будапешт: AB OVO, 1998.<br>18. Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолаш. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – 128 б.<br>19. Mavlonova K. va b. Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 154 b.<br>20. Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2021. – 154 b.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016<br>2. http://navoiy-uni.uz/uz-l/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari<br>3. http://ziyonet.uz/ru<br>4. https://www.uzedu.uz/ru/tatil-pajtida-bilim-olis-ucun-aratilgan-resurslar<br>5. http://library.ziyonet.uz/uz<br>6. https://tilvaadabiyot.uz/<br>7. www.pedagog.uz. |
| **7.** | Fan dasturi Universitet Kengashning 2025-yil __-avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>K.M.Mavlonova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, p.f.d. (DSc) |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>T.A.Yusupova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi<br>G‘.H.Hamroyev – Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) |